“MADANIY MEROS VA TURIZM ISTIQBOLLARI: SUN’IY INTELLEKT, KREATIV SHAHARLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

“Ipak yo‘li” xalqaro tadqiqot instituti

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Xalqaro turizm akademiyasi Samarqand kampusi

“Ipak yo‘llari bo‘ylab barqaror meros turizmi” nomli YUNESKO kafedrasi

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-oktyabrdagi “Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5270-son qarorida ko‘zda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 2026-yil 23-24-noyabr kunlari “Madaniy meros va turizm istiqbollari: sun’iy intellekt, kreativ shaharlar va barqaror rivojlanish” mavzusida xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjuman o‘tkaziladi.

MUROJAAT UCHUN TELEFON:

+99888 105 77 55
(Shirin Abdusaidova)

Ushbu Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2026-yil 23-24-noyabr kunlari “Ipak yo‘li” xalqaro tadqiqot instituti, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Xalqaro Turizm Akademiyasi Samarqand kampusi va “Ipak yo‘llari bo‘ylab barqaror meros turizmi” nomli YUNESKO kafedrasi hamkorligida tashkil etiladi hamda quyidagi sho‘balar bo‘yicha faoliyat yuritadi:

1. **Madaniy merosni saqlash va talqin etishda sun’iy intellekt;**
2. **Turizmni rivojlantirish maqsadida Buyuk Ipak yo‘li madaniy merosini ommalashtirish;**
3. **Madaniyatga yo‘naltirilgan barqaror turizm: innovatsiyalar, amaliyotlar va xalqaro tajriba;**
4. **Kreativ, aqlli va tarixiy shaharlar: barqaror shahar rivojlanishida madaniyat va meros;**
5. **Ipak yo‘li merosi: madaniy almashinuvlar, merosni asrash tajribalari va ularni turizmga integratsiyalash.**

Konferensiyada 36 ta davlatdan, jumladan Indoneziya, Malayziya, Xitoy, Pokiston, Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Italiya, Bangladesh, Hindiston, Fransiya, Portugaliya, Ruminiya va boshqa mamlakatlardan 100 dan ortiq yetakchi olimlar va mutaxassislar ishtirok etishlari kutilmoqda.

Mazkur konferensiyada ishtirok etishni istagan professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar hamda talabalar o‘z ilmiy izlanishlari natijasida tayyorlagan ilmiy maqolalari va tezislarini yuqorida ko‘rsatilgan sho‘balar yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etishlari mumkin.

Konferensiya hay’ati tomonidan yuqoridagi mavzularga mos va talab darajasida rasmiylashtirilgan maqola/tezislar ko‘rib chiqiladi. Taqrizdan o‘tgan maqola/tezislar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi:

konferensiyaga taqdim etilgan materiallar to‘plami elektron nashr etiladi hamda Google Scholar, Crossref, Semantic Scholar, Dimensions, Lens tizimlarida indekslanadi, raqamli obyekt identifikatori (DOI) beriladi;

tanlab olingan maqolalar mualliflari roziligi bilan xalqaro impakt-faktorli va “Ipak yo‘li” xalqaro ilmiy-tadqiqot instituti Buyuk Ipak yo‘li mamlakatlarining madaniy, tarixiy va ilmiy merosini o‘rganish, asrash va ommalashtirishga bag‘ishlangan yangi xalqaro taqrizlanadigan ilmiy jurnal - “Silk Road Heritage Studies” ilmiy jurnalida nashr etish uchun tavsiya etiladi.

Maqolalarni qabul qilish muddati: 2026-yil 11-noyabrgacha.

Maqolalar onlayn tarzda
Telegram: @shirin_yakubovna
yoki academysamarkand@gmail.com elektron manzili orqali qabul qilinadi.

Konferensiya o‘tkazish joyi: “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti.
Manzil: Samarqand, universitet xiyoboni, 17

TAQDIM ETILADIGAN TEZISLARNI RASMIYLASHTIRISHGA QO‘YILGAN TALABLAR

“Silk Road Heritage Studies” ilmiy jurnaliga chop etishga taqdim etiladigan ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan texnik talablar:

maqolalar ilmiy jurnal yo‘nalishlariga oid dolzarb mavzularda, ilmiy tahlil va tugallangan fikrlar asosida amaliy tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim;

maqolalar hajmi – 5 betdan ortiq bo‘lmasligi lozim;

matn formati: MS Word, Times New Roman shrifti, 12 kegl kattalikda bo‘lishi kerak. Satrlar oralig‘i 1,5 interval. Chegara o‘lchovlari: barcha tomondan – 2 sm. Matn boshlanishida 1 sm satr boshi tashlanadi;

rasm va jadvallar nomlanishi arab raqamlari bilan belgilanishi (1-rasm, 1-jadval va h.k.), maqola matnida ularga havola etish lozim; jadvallar ichidagi yozuvlar 12 kegl bo‘lishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlarga matnda havola beriladi;

maqola nomi va muallif (hammualliflar)ning familiyasi, ismi-sharifi katta harflar bilan 12 keglda (ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, ish joyi, lavozimi, telefon raqami, e-mail kichik harflar bilan) o‘rta qismiga joylashtiriladi;

“Silk Road Heritage Studies” ilmiy jurnalida har bir maqolaga DOI raqam olinib, Polshaning Index Copernicus, Yevropaning Zenodo va OpenAIRE, Rossiyaning CyberLeninka, Angliyaning Europub xalqaro ilmiy bazalariga va www.jmmf.uz saytiga joylanadi, Google Scholar xalqaro ilmiy qidiruv tizimida indekslanadi;

taqdim etiladigan maqolalar IMRAD tuzilmasiga muvofiq tayyorlanishi va quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga olishi kerak: Kirish, Metodlar (tadqiqot usullari), Natijalar va Muhokama, Xulosa;

har bir muallif bir vaqtning o‘zida yakka va hammualliflikda maqola bilan qatnashishi mumkin.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etish uchun ariza shakli

Ishtirokchining to‘liq ismi (ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, lavozimi)	
Tashkilotning to‘liq nomi (tashkilot ustaviga muvofiq)	
Tashkilotning qisqa (rasmiy) nomi (tashkilot ustaviga muvofiq)	
Konferensiya sho‘basi	
Maqola nomi	
Ishtirok etish shakli (an’anaviy/masofaviy)	
Telefon raqam	
Elektron pochta manzili	

ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR UCHUN TO‘LOVLAR

Jurnalning rasmiylashtirish, tuzilma va ilmiy mazmun bo‘yicha talablariga to‘liq javob beradigan maqolalar nashrga qabul qilinadi. Belgilangan mezonlarga mos kelmaydigan materiallar dastlabki saralash bosqichida rad etiladi.